

IBROHIM G'AVUROV IJODIDA MANSURA JANRINING O'ZIGA XOS KO'RINISHI

Elmurodova Munisa G'ofur qizi

O'zMU jurnalistika fakulteti adabiyotshunoslik yo'nalishi magistranti

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar:

Mansura, she'riy shakl, qobiliyat, iste'dod, metod, uslub, adabiy shakl.

Annotatsiya

Ushbu maqolada she'r tuzilishi va mansura shaklining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Maqola davomida Ibrohim G'avurov ijodida qo'llangan mansuralarning o'ziga xosligi keng ko'lamda ochib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Inson quvvatida she'r tug'ilishining ikki sababi bo'ladi: ularning biri taqlid - tashbih bilan lazzatlanish, ikkinchisi esa yoshlikdan boshlab shu taqlidning inson faoliyatida ishlatilib kelinishi. Mana shu xislat bilan inson barcha tilsiz hayvonlardan farq qiladi. Shu bilan birga inson taqlid borasida tirik mavjudotlarning eng qobiliyatli sanaladi. Ularning ba'zilarida hech qanday taqlid bo'lmaydi, ba'zilarida esa mutlaq kam uchraydi. Bu yo nag'ma bilan chunonchi, to'tiqush kabi va yoki maymunga o'xshab layoqat hosil qilish bilan bo'ladi.

Insonda bor bo'lgan taqlid foydalidir. Bu bilan inson biror narsaga o'xshatma qilib, ma'lum bir ma'noga ishora qiladi. O'sha ishoralar esa ta'lim o'rnini egallaydi. Shu sababdan bilim egallah faqat faylasuflar uchungina emas, balki, umuman, ko'pchilikka zavq baxsh etadi. To'g'ri bilim egallah taqlid vositasida yuzaga kelyapti. Bu bilim kishi ruhida mayjud bo'lgan muayyan bir faoliyatning aksi sanaladi. Shuning uchun ham odamlar bu chizilgan rasmlarga qarab, tasvir ham o'sha asliga o'xhash qilib yaratilganligini his etishgach, ko'proq, yana ham ko'proq qiziqadilar. Bordiyu ular aslini oldinroq ko'rishib, ularni payqashmaganida zavqlanish to'la-to'kis bo'lmas edi. Shunday ekan, ular o'sha chizilgan rasmlar sifati, holati va hokazolarni ko'rib, ulardan olinadigan lazzat oldingisiga yaqinroq bo'lgan taqdirda ham zavqlana oladilar.

Ikkinci sabab esa, odamlar tabiatidagi kompozisiya va kuylar ta'rifiga bo'lgan muhabbatdir. So'ngra asosiy gap kuylarga munosib vaznlar topishda qolgan. Ularga esa kishilarning ruhlari mayl etadi. Nafslar ularga moyil bo'ladigina emas, axtarib topadi ham.

Mana shu ikki sabab yuz bergach, she'r tug'iladi. U kishi tabiatiga asta-sekin singib, una boshlaydi. U ko'proq tabiatan shoir bo'lganlarda kutilmaganda va tabiiy ravishda yaratiladi. Ularning har birida bo'lgan tabiiy sezgi va o'ziga xos bo'lgan qobiliyatga, o'z xulqi va odatiga ko'ra she'r yaratish xususiyati paydo bo'ladi.

She'r tuzilishi - she'riy nutqning davomiyligi, ritmi va musiqiyligini uyushtiradigan usul; adabiy-badiiy vosita. Nazm vositasidagi nutq, ya'ni she'riy nutq nasriy nutqdan she'r tuzilishi qonuniyatlariga ko'ra va

shu qonun-qoidalarga qat'iy amal qilinishi bilan farqlanadi. She'r tuzilishi aslida o'ziga xos murakkab tizimni tashkil etadi. Chunki she'rning yaratilishida juda ko'plab g'oyaviy va badiiy unsurlar ishtirok etadi. Jumladan, mavzu, g'oya, band, naqarot, ritm, vazn, qofiya, intonasiya, pauza, urg'u, poetik timsollar, fonetik usullar, badiiy san'atlar, syujet, timsol, kompozisiya, konflikt va boshqalar unsurlarning aniq, yagona bir tizimga birikuvidan she'r paydo bo'ladi.

Vazn - she'r o'lchovi yoki me'yorini bildiradi. U she'riy nutqni nasriy nutqdan ajratib turuvchi asosiy unsurlardandir. Vazn ba'zan saj'da va aruzning bahri ta'vil shaklida ham uchrashi mumkin. Qofiya esa ohangdosh so'zlarni she'r misra (bayt, band)larida tizimli bo'lib kelishidir. Band - she'rning alohida qofiyalanish tartibiga ega ritmik bo'lagi. U qofiya va intonasiya bilan birikkan misralarning muayyan tartib asosida takrorlanishidir. Vazn va bandni tildan ajralgan holda, turli jadvallar va belgilar bilan ham ko'rsatish mumkin. Ammo qofiya, takrir (so'z takrori) va tajnis (jinsdosh so'zlar) til materialidagina ko'rindi.

O'zbek she'r tuzilishi tarixida barmoq va aruz tizimlari o'zbek she'r tuzilishining asosini tashkil etadi. Negaki, o'zbek she'riyati, asosan, barmoq va aruzda yaratilgan. Qolgan she'r tizimlari - erkin vazn, bo'g'inurg'u, miqdorurg'u va qorishiq tizimlar u qadar keng tarqalmagan. Bitta she'r doirasida bo'g'in, turoq, misra, band, qofiya, ritmik pauza kabi vositalarning mazmun va ohang talabiga mos tarzda tovlanishi (rang-barang va erkin bo'lishi) erkin she'r sistemasining bosh qonunidir.

She'r (arab. shuur - sezgi) - fikrning his-tuyg'uga qorishiq ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli she'riy nutq bilan ifoda etilgan, ma'lum ichki ohangga ega badiiy asar. "She'r" atamasi o'rniqa ba'zan "nazm" so'zi ham qo'llanadi, u badiiy adabiyotning qadimiyligi turi hisoblanadi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida "She'r" atamasi ma'nosini erkinroq tushunish, oldingi shakliy qoliplarni o'zgartirgan holda yangi poetik kashfiyotlar qilishga intilish tamoyili kuchli. Shuning uchun ham o'zbek nazmida "oq she'r", "sochma she'r", "nasriy she'r", "tasbih", "uchchanoq" singari she'r shakllari paydo bo'lmoqda.

Adabiyot tarixiga nazar solsak, mansura she'rlar hammaning ijodida ham uchrayvermasligini ko'rishimiz mumkin. Bu shakl nisbatan murakkab. Sababi she'riy ohangni nasrga singdira olish kerak. Bu ijodkordan katta mahorat va iste'dodni talab qiladi. Mansura she'r dastlab Usmon Nosir, Mirtemir ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Aloida ta'kidlab o'tish kerakki, Ibrohim G'afurov ijodida mansura she'r alohida mavqeyga ega. Xurshid Davron ta'kidlaganidek: "O'tgan asrning yetmishinchisaksoninchi yillarini tanqidchilikda, hech mubolag'asiz, Ibrohim G'afurov davri deyishga haqlimiz. U chinakam fidoyi ijodkor sifatida adabiyotimizda paydo bo'lgan har bir, xalq ta'biri bilan aytganda, pichoqqa ilinadigan asarni tahlil qilib, o'z munosabatini bildirib bordi va adabiy tanqidchilikda yirik siymoga aylandi.

Ibrohim G'afurov badiiy tarjima sohasida katta ishlarni bajardi. U o'zbek kitobxonini dunyo adabiyotining Joys, Dostoyevskiy, Xeminguey, Folkner, Flober, Markes, Aytmatov kabi so'z san'atkorlarining durdona asarlari bilan tanishtirdi. Zahmatkash tarjimon tarjima uchun asar tanlaganda, albatta, o'zbek adabiyotini boyitadigan ijod namunalarini tanladi. Bu, shubhasiz, eng to'g'ri ijodiy yo'ldir.

Ibrohim G'afurov adabiyotimizda yangi janr — mansura janrini yaratdi. Mansura mansur she'r dan jiddiy farqlanadi. Bu janrning imkoniyati ancha keng. Mansurada hajmi hikoyaga teng asarlar ham yozish mumkin. Lekin bir muhim sharti bor: unda fikr oqimi, musiqasi uzilmasligi kerak. Mansura she'r kabi o'qilishi lozim".

Ibrohim G'afurovning quyidagi mansurasida uning mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi:

Men tug'ilganda qaxraton edi .

Qiynalib tug'ildim .Zaminga tushdim oyog'im bilan .

Otam yozib qo'ygan siyoh qalamda eski bir suvratning orgasiga :

jumodil avvalning beshinchchi kuni .

Dekabrning yigirma yettisi .

O'ttiz yettinchi yil ...

Ijodkorning ushbu mansurasida o'zining tug'ilish holati mansura shaklda go'zal ohang bilan ochib beriladi. Guvohi bo'lganimizdek, she'rda qofiya yo'q, lekin o'zgacha ohang bor. Ohang orqali she'r ma'nosi ham ochila boradi:

To 'qsonga chiqqan enaga kampir : tushgan ,

dahanlari urishgan

Meni o 'lgan deb ,

o 'rab ,

chirmab eski -tuskiga

sovuq uyning bir chekkasiga eltib qo 'ydi .

Onam xushidan ketgan edi .O 'ziga kelgach :

-Ena ..-dedi juda zaif ovozi bilan –

ena ...Keltiring, bir ko 'ray, mo 'rt bo 'lsa ham bir

ko 'ray yuzini ...-dedi .

-O ,enang tasadduq, nimasini ko 'rasan .

Shukur qil .Joning omon qoldi .Bundaydan

hali qanchasini tug 'asan, bolam ...

She'rda ayrim so'zlarning ohangdosh bo'lib kelishini ko'ramiz masalan: ko'rasan-bundaydan, deb-o'rab, tushgan-urishgan kabi. Lekin bularni to'laqonli qofiyadosh so'z deya olmaymiz. Aslida ham mansura she'rning asosiy xususiyatlaridan biri ham bu qofiyasiz kelishidir.

Foydalanimizga yaroqchilik:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғалати. Тошкент, 2007, 5 том, 475 бет.
2. Б.Карим. XX аср ўзбек шеърияти антологияси. Сўз боши. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. 3-бет.
3. Ibrohim G‘afurov „Go‘zallikning olmos qirralari“ (1964)
4. Ibrohim G‘afurov „Unitilmagan bog“ (1965),
5. Ibrohim G‘afurov “Joziba“ (1970),